

ZIYONET AXBOROT TA'LIM TARMOG'I VA UNING LOYIHALARI

Muhammadjonova Xonzodabegim Otabek qizi

Farg'ona davlat universiteti Chet tillari fakulteti, 1-kurs
xonzodamuhammadjonova1006@gmail.com +998905379705

Ilmiy rahbar: Mirzaakbarov Dilshodbek Dovlatboyevich

Farg'ona davlat universiteti axborot texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi
mdilshodbek@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini raqamlashtirish va zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etuvchi ZiyonNet axborot-ta'lim tarmog'ining ta'lim sohasini raqamlashtirishdagi o'rni va faoliyati tahlillar bilan yoritiladi. Tarmoqning asosiy maqsad va vazifalari, uning doirasida amalga oshirilgan loyihalar, ularning mazmun-mohiyati va foydaliligi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Maqola ZiyonNetning pedagoglar, talabalar va o'quvchilar uchun yaratayotgan imkoniyatlari hamda zamonaviy ta'limdagi ahamiyatini ochib beradi.

Annotation: In this article, the role and activities of the ZiyonNet information and educational network, which is important in the direction of digitization of the educational system and introduction of modern information and communication technologies in the Republic of Uzbekistan, are covered by analyzes. The main goals and objectives of the network, the projects implemented within its framework, their content and usefulness are described in detail. The article reveals the opportunities that ZiyonNet creates for educators, students and students, as well as its importance in modern education.

Kalit so'zlar: ZiyonNet, axborot-ta'lim tarmog'i, raqamli ta'lim, elektron resurslar, ta'lim portali, o'quvchilar, talabalar, maktab, ilmiy loyiha, onlayn platform, ta'lim texnologiyalari, innovatsion ta'lim.

Keywords: ZiyonNet, information and Education Network, digital education, electronic resources, educational portal, students, students, school, scientific project, online platform, educational technology, innovative education.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy ta'lim shakllaridan tashqari, raqamli resurslardan foydalanish, masofaviy ta'lim, multimedia vositalari orqali dars o'rganish keng ommalashmoqda. O'zbekiston Respublikasida bu jarayon davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, ta'limni zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etishda ZiyonNet axborot-ta'lim tarmog'i alohida ahamiyat kasb etadi.

ZiyoNet – bu barcha darajadagi ta’lim muassasalari, o’quvchilar, talabalar, o’qituvchilar va ota-onalar uchun yagona axborot platformasi hisoblanadi. Bu tarmoq orqali foydalanuvchilar zarur darsliklar, o’quv qo’llanmalar, testlar, video darslar, ilmiy maqolalar, adabiy asarlar, ijodiy ishlar va boshqa ko’plab materiallarga erkin kirish imkoniyatiga ega. ZiyoNet axborot - ta’lim tarmog’i 2005-yilda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida tashkil etilgan. Uning asosiy vazifasi – zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim jarayonini qo’llab-quvvatlash, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, o’quvchilarning mustaqil bilim olishiga ko’maklashishdan iborat. Shuningdek, tarmoqning asosiy yo’nalishlari quyidagilardan iborat, ya’ni elektron resurslar bazasini shakllantirish va doimiy ravishda boyitish, o’quv materiallariga onlayn va oflayn tarzda qulay kirish imkonini yaratish, o’quvchi va talabalarning ijodiy, ilmiy, texnik salohiyatini yuksaltirish, pedagogik tajriba almashinuvi uchun platforma yaratish, ta’limdagi ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash. ZiyoNetning asosiy bo’limlari va loyihalari mavjud. Ular ziyoNet tarmog’i turli yoshdagi foydalanuvchilar uchun moslashtirilgan bir nechta muhim loyihalarni o’z ichiga oladi. Har bir loyiha alohida vazifani bajarishga yo’naltirilgan. Misol uchun, Kitob.uz – Elektron kutubxona bo’lib uning vazifasi talabalar o’rtasida ilmiy, ijodiy va ijtimoiy faollikni oshiradi. Talaba.uz – ushbu loyihaning asosiy vazifasi onlayn muloqot va tajriba almashish imkoniyatlarini yaratishdan iborat. ZiyoNet tarmog’i nafaqat o’quvchilarga, balki o’qituvchilarga ham katta foyda keltirmoqda. Pedagoglar darsga tayyorgarlik ko’rishda, yangicha metodlarni o’rganishda, zamonaviy o’quv adabiyotlarini topishda ushbu tarmoqdan faol foydalanmoqda. Bundan tashqari, tarmoq maktablar, kollejlari, texnikumlar va universitetlar o’rtasida axborot almashinuvini kuchaytiradi, tajriba almashishga imkon beradi. ZiyoNet orqali masofaviy ta’lim ham yo’lga qo’yilgan bo’lib, ayniqsa pandemiya davrida bu tizimning dolzarbligi yaqqol namoyon bo’ldi. O’quvchilar darslarni onlayn ko’rish, mustaqil testlar topshirish, video darsliklar orqali mavzuni chuqurroq tushunish imkoniga ega bo’lishdi.

Zamonaviy ta’lim tizimi raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo’lmaydi. O’zbekiston Respublikasida bu yo’nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yaratilgan ZiyoNet axborot-ta’lim tarmog’i — ta’lim sohasining raqamlashtirilishida muhim vositaga aylangan. Ushbu tarmoq o’z tarkibidagi loyihalar orqali o’quvchilar, talabalar, pedagoglar va ijodkor yoshlar uchun keng qamrovli, zamonaviy va interaktiv axborot maydonini shakllantirmoqda. ZiyoNet nafaqat o’quv materiallariga tez va oson kirish imkonini yaratadi, balki mustaqil ta’lim olish, ilmiy va ijodiy salohiyatni rivojlantirish, tajriba almashish va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Ayniqsa, maktab va oliy ta’lim bosqichlaridagi raqamli resurslar bilan boyitilgan loyihalar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Xulosa qilib aytganda, ZiyoNet axborot-ta’lim tarmog’i bugungi

raqamli davr talablari asosida shakllanayotgan bilimli, innovatsion fikrlovchi avlodni tarbiyalashda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Uni yanada takomillashtirish va kengaytirish esa ta'limdagi taraqqiyotning yangi bosqichiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "2022–2026-yillarda raqamli ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2022.
2. Ziyonet rasmiy portali – www.ziyonet.uz (murojaat qilingan sana: 2025-yil 20-aprel).
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi rasmiy sayti – www.maktab.uz
4. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
5. Axmedova D. "Raqamli ta'lim resurslari va ularning samaradorligi" "Ta'limda innovatsiyalar" ilmiy-amaliy jurnali, 2023, №2. – B. 45–49.
6. Abdullaeva Z. "Ziyonet axborot-ta'lim tarmog'ining ta'lim jarayonidagi o'rni" Pedagogika va psixologiya jurnali, 2024, №1. – B. 32–36.
7. www.kitob.uz – Elektron kutubxona portali (murojaat qilingan sana: 2025-yil 20-aprel).
7. Qodirov N. "Ta'lim sohasida axborot texnologiyalari" – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 210 b.

